

QISSACHILIKDA ILK QOTILLIK MOTIVI
(Nosiruddun Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari misolida)

Sayfiyeva Mahliyo Faxriddin qizi
*Qarshi davlat universiteti Yangi o‘zbek adabiyoti va
adabiyot nazariyasi kafedrası tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qissachilik janrida ilk qotillik motivining badiiy, falsafiy va axloqiy talqini chuqur tahlil qilinadi. Asarda Qobil va Hobil qissasi orqali insoniy hasad, nafs va ichki kurash masalalari ochib berilgan. Rabg‘uziy ushbu voqeani didaktik ruhda talqin qilib, o‘quvchini ma‘naviy-axloqiy saboqlarni o‘zlashtirishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: qissachilik, ilk qotillik, hasad, nafs, axloqiy talqin, Rabg‘uziy

Аннотация: В статье анализируется художественно-философская интерпретация мотива первого убийства в жанре кысса. Через историю Кабила и Хабила раскрываются проблемы зависти, страстей и внутренней борьбы человека. Рабгузи интерпретирует событие в дидактическом ключе, подчёркивая моральные уроки.

Ключевые слова: кысса, первое убийство, зависть, страсть, нравственная интерпретация, Рабгузи

Annotation; This article provides an in-depth analysis of the artistic, philosophical, and ethical interpretation of the first murder motif in the qissa genre. The story of Qabil and Habil illustrates human envy, desire, and internal conflict. Rabguzi interprets the event in a didactic manner, emphasizing moral lessons.

Keywords: qissa, first murder, envy, human desire, moral interpretation, Rabguzi

Qissachilik Sharq adabiyotida diniy-tarbiyaviy mazmundagi asarlar orqali o‘quvchiga ma‘naviy saboqlar yetkazishning muhim janri hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning asari alohida ahamiyatga ega. U XIII asrning oxiri XIV asrning boshlarida Xorazmning Raboti o‘g‘uz degan joyida yashab ijod etgan. Bizga uning "Qissasi Rabg‘uziy"dan boshqa asari ma‘lum emas. Mazkur kitobda u o‘zi haqida musulmonlarga xos kamtarinlik bilan "...bu kitobni tuzgan, toat yo‘lida tizgan, ma‘siyat yobonin kezman, oz ozuqliq, ko‘p yozuqliq Raboti o‘g‘uz qozisi Burhon o‘g‘li Nosiruddin..." deb yozadi. Yetuk ulamo va din oilasida tarbiyalangan Nosiruddinning o‘z zamonasida taniqli tarixchi, yetuk shoir va iste‘dodli tarjimon sifatida tan olinganligidan dalolat beruvchi bir talay yordamchi manbalar mavjud. Rabg‘uziyning qissalari ma‘nosini anglatuvchi "Qissasi Rabg‘uziy" asari olam va odamning yaratilishi, insonning yo‘ldan ozishi va komillik sari mashaqqatli va uzoq

yo'l bosib borayotganligi haqida g'oyat mantiqli va qiziqarli tarzda hikoya qilinadi. Ushbu asar musulmon dinini qabul qilgan e'tiborli mo'g'ul bekларidan biri Nosiruddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra, hijriy 109 (milodiy 1309 - 1310) yilda yozilgan. Asosan payg'ambar hayotini hikoya qiluvchi bu asarning o'ziga xos yaratilish tarixi bor. Musulmon Sharqida bu mavzuda "Qisas ul-anbiyo" (payg'ambarlar qissasi) nomi bilan mashhur ko'plab asarlar yaratilgan. Lekin asarda yozilishicha, ularning "ba'zisi mustaqim (to'g'ri, haqiqiy) bor, ba'zisi nomustaqim. Biroq Olam va Odam yaratilgandan buyon yer yuzidagi dastlabki qotillik motivi ham aynan mana shu asarda keltirilgan.

Ilk qotillik motivi insoniyat tarixidagi eng dastlabki fojia sifatida alohida e'tiborga loyiqdir. Bu motiv yaxshilik va yomonlikning ilk to'qnashuvi, insoniy haqiqat va axloqiy tanlovning ramzi sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotshunoslikda motiv tushunchasi asardagi takrorlanuvchi syujetlar orqali mazmunni chuqurlashtiruvchi badiiy unsur sifatida izohlanadi. Ilk qotillik motivi diniy manbalarga borib taqaladi, xususan Qur'oni karim va hadislar. Qissachilikda esa ushbu voqea didaktik ruhda qayta ishlanadi, o'quvchi ongini shakllantiruvchi tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi.

Rabg'uziy voqeani shunchaki tarixiy rivoyat sifatida emas, balki axloqiy saboq sifatida talqin qiladi, shuningdek, insoniy fazilatlar va ichki kurashni yoritadi. Asardagi "Qobil va Hobil" haqidagi rivoyat quyidagicha boshlanadi: "Sen ularga Odamning ikki o'g'lin voqeasini haqiqat qilib o'qib eshitdirgin. Vaqtiki ular har ikkovlari qurbonlik qildilar, ularning faqat bittalarining qurbonligi qabul qilindi..."

Rabg'uziy asarida Qobil va Hobil voqeasi hasad motivi bilan bog'liq holda yoritiladi. Qobilning qurboni qabul qilinmay, Hobilning qurboni qabul qilinadi, natijada aka-uka o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Hasad inson qalbidagi eng xavfli illatlardan biri sifatida tasvirlanadi. Aslida esa bu qotillikning tub negizida nafs yotadi, ya'ni "...Qachon Qobil tug'di ersa aning birla bir qiz tug'di, g'oyat ko'rkluk, Iqlimo otlig'. Ikki yilda kezin Hobil tug'di. Aning birla tug'gan qiz g'oyat ko'rksuz erdi, Abudo otlig'. Odam o'z shariaticha Qobil birla tug'gan qizni Hobilg'a berur bo'ldi. Hobil birla tug'gan qizni Qobilg'a berur bo'ldi ersa Qobil unamadi. "Maning birla tug'gan qizni olurman", tedi. Odam aydi: "Shariat andog' ermas". Qobil aydi: "Bu manga qarindosh bo'lur ersa ul ham qarindosh bo'lur", deb taloshdi, Odam aydi: "Andog' ersa ikagu qurbon qiling, qayungizning qurboni qabul bo'lsa Iqlimoni ul olsun", tedi. Hobil qo'y kuzarur erdi, ulug' semiz qo'y kelturub azoqlarini bog'ladi, qurbon qilur yerda qo'zdi. Ko'kdin o't indi, Hobilning qurbonini kuyurdi, Qobilning tegrasinga yovumadi. Iblis kelib Qobilg'a aydi: "Hobilning qurboni aning uchun qabul qilindiki, mavlo azza va jalla hazratinda aning izzati va qurbi bor. Otang Odam ye ma ani sevar taqi Odamning tilagi ul turur, bu yer xalifaligi Hobilg'a bersa", teb. Qobilning

o‘fkasi keldi, aydi: “ Men Hobilni o‘lturayin. Qiz yema, xalifaliq yema manga qolsun”, teb. Qobil Hobilni o‘lturmakka o‘g‘radi. Netak o‘lturguni bilmas erdi. Bir kun yobonda Iblisni ko‘rdi. Odam surati uza bir qush tutub borur. Bir tosh qo‘zdi. Qushni tosh tabasinga qo‘zdi, taqi yana bir tosh birla yanchdi. Qobil ani ko‘rub o‘lturmak o‘trandi. Qobil Hobilg‘a: “ Man seni o‘lturerman”, tedi. Hobil aydi: “ Man sanga qatilmazman iza azza va jalladan qo‘rqarmen”... tasvirlarida Qobilning naqadar nafsi ustun kelganligini anglash mumkin.

Asarda qotillik jarayoni insonning ichki kurashi natijasi sifatida beriladi. Rabg‘uziy Qobilning ruhiy holatini tasvirlash orqali nafsning inson ustidan g‘alabasini ko‘rsatadi. Shuningdek, voqea zamirida sabr, qanoat va taqvo kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi va har bir holat yuzasidan diniy tavsif berib boriladi.

Asarda ramziy tasvirlar, dialog va didaktik xulosalar keng qo‘llanadi. Voqea sodda bayon qilinsa-da, uning ichki ma‘nosi chuqur falsafiy mazmunga ega. Qotillik voqeasi insoniyat tarixidagi birinchi zulm sifatida talqin qilinadi. Rabg‘uziy uslubi o‘quvchiga nafaqat tarixiy voqeani, balki insoniy fazilatlarni ham yetkazadi.

Maqola eski qo‘lyozma nusxalarini, shuningdek, 1990-yilda nashr etilgan zamonaviy variantni solishtiradi. Qo‘lyozma va nashr o‘rtasidagi kichik farqlar asarning talqin uslubida seziladi, lekin motivning mazmuni va axloqiy saboqlari bir xil saqlangan.

Ilk qotillik motivi qissachilikda inson tabiatidagi yovuzlikning boshlanish nuqtasi sifatida ko‘rsatiladi. Rabg‘uziy asari orqali hasad va nafsning halokatli oqibatlari ochib beriladi, o‘quvchi esa ezgulik, sabr va axloqiy fazilatlarni qadrlashga o‘rgatiladi. Asar bugungi kunda ham o‘zining ma‘naviy-tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rabg‘uziy, N. B. Qisasi Rabg‘uziy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990. – 256 b.
2. Rabg‘uziy, N. B. Qisasi Rabg‘uziy (qo‘lyozma nusxa). – XIV asr. – O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondi.
3. Karimov, N. O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 320 b.
4. Qayumov, A. Qadimgi turkiy adabiyot. – Toshkent: Fan, 1979. – 280 b.
5. Is‘hoqov, Y. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2005. – 310 b.
6. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Sharq, 2001. – 608 b.